

“ERKIN VOHIDOV – DOSTONNAVIS” MAVZUSINI O‘QITISHDA TURLI INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Zakirova Maqsuda Atayevna

UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning ijodining o‘ziga xos jihatlari, shoirning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va dostonlari haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Qahramoni, “Nido”, “Ruhlar isyoni”, „Palatkada yozilgan doston“, „Orzu chashmasi“.

Erkin Vohidov xilma-xil lirik she’rlar yozish bilan birga, “Orzu chashmasi”, “Nido”, “Palatkada yozilgan doston”, “Quyosh maskani”, “Charog‘bon”, “Baxmal”, “Ruhlar isyoni” kabi dostonlar ham yaratgan. Bu dostonlarning aksariyati g‘oyaviy mazmun jihatidan ham, badiiy jihatdan ham go‘zal va betakror asarlardir. Ularda turli mavzular teran aks ettirilgan.

Uning 1964- yilda yaratilgan ilk dostoni - «Nido»da insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi, shoir kishilarni hushyorlikka, ogohlikka chaqiradi. Urushlar qadim-qadimdan insoniyat boshiga katta kulfatlar solib kelgan. Ikkinchi jahon urushida ellik milliondan ortiq odam halok bo‘ldi. Erkin Vohidovning «Nido» dostoni ham xuddi ana shu urush va u keltirgan kulfatlar, u yetkazgan jarohatlar haqidadir. Bu doston avtobiografik xarakterga ega, ya’ni shoirning tarjimai holi bilan bog‘liqdir. Chunki uning ayni qalam ushlab, savod chiqarish davri ana urush yillariga to‘g‘ri keladi. Rustamning akasi bilan Xol aka-ku nogiron bo‘lishsa ham qaytib kelishibdi. Tal’atning dadasidan qoraxat kelgan edi. Bu bugungi kunning ham dolzarb muammosidir. Agar odamzod ogoh bo‘lmasa, ona zamindagi barcha tinchliksevar kuchlar birlashib urushga qarshi chiqmasa, bu fojia avvalgilaridan ham dahshatliroq bo‘lib takrorlanishi mumkin. Dostonda tinchlik uchun kurashib jon berganlar

nidosi, ularning ortida qolgan farzandlar, onalar, chol-u kampirlar nidosi umumlashib davr nidosiga - tinchlik uchun kurash nidosiga aylanib ketadi:

«Ruhlar isyoni» dostoni XX asr adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. «Doston o‘zining isyonkor she’rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoiri Nazrul Islomning orzu-armonlari, jasorati, fojiaaviy qismati haqida. «Ruhlar isyoni» garchi Nazrul Islom haqida bo‘lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o‘zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma’nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o‘y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko‘rishga intildim», – deydi E. Vohidov dostonning yaratilishi to‘g‘risida. Nazrul Islomning «Tug‘ilgansan ozod, mudom Ozod bo‘lib qol!» misralari dostonga epigraf qilib olingan. «Eldan omad ketsa, Dastlab hamjihatlik yo‘qolgay» misralari orqali shoir bizni birdamlikka, jipslikka undaydi. Asarda «Jaholat haqida rivoyat» beriladi. Unda donishmand hakim nashtar bilan ko‘r odamning ko‘zini ochadi. Johil olomon esa uni makruh deb atab donishmandni gulxanda kuydiradi. O‘sha ko‘r bo‘lib ko‘zi ochilgan chol esa donishmand hakimni haqorat qilib olovga o‘zi o‘t qo‘yadi. Yaxshilikni, ezgulikni tushunmagan johil olomonning holati edi bu. Alamli va achchiq bu hodisadan yillar o‘tib shu odamlarning aql ko‘zi ochildi, donishmandga esa oltin haykal qo‘ydilar.

Rivoyatdagi hakim bilan Narzul Islom shaxsida umumiylik bor. Ularning ikkalasi ham xalq uchun jonini tikkan farzandlar edi, afsus buni xalq ularning o‘limidan so‘ng angladi. «Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»dagi ota va o‘g‘il munosabatlari ifoda etilgan. Bedil davrida Shohi Jahon 31 yil Hind taxtida o‘tirdi. Uning yori Mumtoz Mahalga sirdoshi, darddoshi edi. Ammo Mumtoz Mahal olamdan o‘tdi. Shoh qanotsiz qushga o‘xshab qoldi va sevgilisi xotirasiga atab Toj Mahalni qurdirdi. Qurilish 20 yil davom etdi. O‘g‘li Avrangzeb Shohi Jahonga qarshi isyon ko‘tardi. U otasidan taxtni tortib olib shohni esa zindonga tashladi. «O‘g‘lim faqat shod bo‘lsin. Mendagi bul dardi

hijron Hasratlarga yot bo'lsin» tarzida tarbiyalagan farzandi o'z otasiga bunday «karomat» ko'rsatdi. Dostonni o'qir ekanmiz, Odam, Olam, Hayot va yashashdan maqsad kabi tushunchalar haqida o'ylab ketamiz. Shoirning asarlarida hayotga, go'zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning sizga taqdim etilayotgan «Ruhlar isyoni» dostoni XX asr adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. «Doston o'zining isyonkor she'rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiaaviy qismati haqida. «Ruhlar isyoni» garchi Nazrul Islom haqida bo'lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o'zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma'nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o'y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko'rishga intildim», – deydi E. Vohidov dostonning yaratilishi to'g'risida.


Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin. Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin

fikrlash jarayoni yangi pogʻonaga koʻtariladi. Oʻqituvchi shu tarzda oʻquvchilarni faollashtiradi, oʻzlashtirishi past oʻquvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.¹

“Erkin Vohidov – dostonnavis” mavzusini oʻqitishda “Aqliy hujum”, “Zakovat”, “Rolli oʻyin”, “Bahs-munozara”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Matnni tikla” kabilardan oʻrinli foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishga erishishimiz mumkin.

Asarlarni tahlil qilishda oʻzaro taqqoslashlardan unumli foydalanish oʻquvchilar ongida qiyoslash, ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Dostonlarni oʻqish orqali qahramonlarning hayoti, yashash muhitini oʻzaro solishtirishadi. Xulosalarini mustaqil sharhlab beradilar. “Venn diagrammasi” orqali “Nido” va “Ruhlar isyoni” dostonlarini qiyosiy tahlil qilishadi.

VENN DIAGRAMMASI



“Ruhlar isyoni” dostonini tahlil qildirishda “Baliq skeleti” metodi judayam qoʻl keladi.

¹ G. Safarova. “Adabiyot fanini oʻqitishda eng samarali metodlar” maqolasi

“Baliq skeleti” metodi asosida “Ruhlar isyon” dostonini tahlili



Erkin Vohidov - serqirra ijodkor. O‘zbek she’riyatining taraqqiyotida, janrlar ko‘lamining ortib borishida uning hissi g‘oyat katta. Shuni inobatga olgan holda dars jarayonida kitobxonlikni targ‘ib qilish, badiiy asar mutoalasiga keng yo‘l ochib berish maqsadida o‘quvchilarga turli xil topshiriqlar, jadvallarni berish, ular bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish kerak.

Erkin Vohidov hech bir she’rini shunchaki yozmaydi, balki ularning har birida hayotning muhim masalalarini, inson bilan bog‘liq haqiqatning yangi-yangi qirralarini kashf etadi. Uning o‘ziga xos milliylik, samimiylik balqib turgan ijodiy kashfiyotlari tilni betakror birliklar, tasviriy ifodalar bilan boyitishga, xalq ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Uning ijodiga xos tiniqlik, ohanrabolik, falsafiylik va mukammallikdan xalq ruhi ufurib turadi. Shoirning olmosdek serjilo ijod mahsullari bundan keyin ham yoshlarimiz-millatimiz ma’naviyatini yuksaltirish uchun o‘zining munosib bahosiga ega muhim manbalardan biri sifatida boqiylikka muhrlanib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avliyoqulov N., Musayeva N. Pedagogik texnologiya. – T. : Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2006.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T. Yangi asr avlodi, 2005
4. Vohidov E., Kuy avjida usilmasin tor. – T. G'.G'ulom nashriyoti, 1991.
5. Vohidov E., Inson. – T. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T. 2018
6. Vohidov E., Qalb sadoqati. – T.: "Sharq". 2018.
7. Vohidov E. "Tarjimai holim" maqolasi. Toshkent. "Yoshlik" jurnali. 10-son. 1992.
8. Vohidov E. "Qalb sadoqati" . 5-jild. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
9. Vohidov E. "Dostonlar". Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
10. Vohidov E. "Muhabbat". Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
11. Shukur Qurbon. Toshkent. "Ustoz saboqlari". "Sharq" nashriyoti. 2016.